V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

RO‘ZIBOYEV MARKS BOTIRBOEVICH

DINAMIK SISTEMALARDA TURG‘UNLIK, ERGODIKLIK VA BOSHQARUV

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent 2024

УДК: 517.977

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

RO‘ZIBOYEV MARKS BOTIRBOEVICH

DINAMIK SISTEMALARDA TURG‘UNLIK, ERGODIKLIK VA BOSHQARUV

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent 2024

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzurigadi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3DSc/FM274 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomigadi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://kengash.mathins.uz) va «Ziyonet» ta'lim axborot tarmog'iga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Azamov Abdulla Azamovich**
fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar: **Djalilov Akhtam Abdurakhmanovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurad Kalandarovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Sachkov Yuriy Leonidovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston Milliy Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «26» dekabr soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz. Website: www.mathinst.uz).

Doktorlik dissertatsiyasi bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (192-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 10 » dekabr kuni tarqatildi.
(2024 yil « 10 » dekabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

U. A. Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., akademik

J. K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi,f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

R. R. Ashurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari, f.-m.f.d. professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarning salmoqli qismi evolyutsion xarakterga ega boʻlib, vaqt oʻtishi bilan muayyan qonuniyat asosida oʻzgaradi. Bunday oʻzgarish dinamik jarayon deyiladi. Dinamik jarayonlar differensial tenglamalar bilan modellashtiriladi. Agar jarayonlar qanday kechishini oʻrganish maqsad qilinsa, bunga eng samarali vositalardan biri dinamik sistemalar nazariyasidir. Dinamik jarayonlarni matematik modellashtirishning mohiyati sistemaning qonuniyatlarini topish, sistemani xarakterlovchi parametrlarni tahlil qilishdan iborat. Tabiiy jarayonlarni matematik modellashtirishda parameterlarning qiymatlarini taqriban hisoblashga toʻgʻri keladi. Bunda parameterlar qiymatlarining kichik oʻzgarishlari taʻsirida matematik modellar dinamikasining qanday oʻzgarishini tadqiq qilish masalasi paydo boʻladi. Bu masala dinamik sistemalarning turgʻunlik masalasi deyiladi va u muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Jumladan dinamik sistema evolyutsiyasini tavsiflash va uning tashqi taʻsirlar ostida turgʻunligini tadqiq qilish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Bunda “turgʻunlik“ tushunchasini turli yoʻsinda aniqlashtirish mumkin va shu tarzda dinamik sistemalar nazariyasining u yoki bu yoʻnalishi hosil boʻladi.

Hozirgi kunda jahonda dinamik sistemalar nazariyasi va ularning amaliy masalalarga tatbiqlari keng oʻrganilmoqda. Dinamik sistemalar nazariyasiga 19-asr oxirlarida A. Puankare tomonidan asos solingan. Shu nuqtai nazardan u matematikaning klassik sohasiga aylangan. Shunga qaramay, masalalarning xilma-xilligi va koʻplab sohalarga tatbiqlari tufayli u hozirgi zamon matematikasining jadal rivojlanayotgan eng dolzarb sohalaridan biriligicha qolmoqda. Oxirgi oʻttiz yilda matematika yoʻnalishidagi muhim ilmiy natijalar uchun ta’sis etilgan Fields mukofoti sovindorlaridan yettitasi dinamik sistemalar nazariyasi boʻyicha mutaxasislar ekanligi shundan dalolat beradi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda fundamental tadqiqotlarni jahonda yetakchi oʻrinlarga chiqlarishga katta eʻtibor berilayotganligi[1] tufayli dinamik va boshqariluvchi sistemalarning turgʻunlik nazariyasi boʻyicha salmoqli natijalarga erishildi. Xalqaro matematika jamiyati e'tiborida turgan sohalardan biri boʻlgan dinamik sistemalar nazariyasi boʻyicha tatqiqotlarni yurtimizda yanada kuchaytirish, jumladan dinamik sistemalarning parametrlar boʻyicha turgʻunligini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Mazkur dissertatsiya ishida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ana shu masalalar turkumiga mansub natijalardan hisoblnaladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-son Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi № PQ-4387-son qarori

instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-son Qarori va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharxi. Dinamik sistemalar nazariyasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida, jumladan, AQShning yetakchi universitetlari: Princeton, Masachuest Technologiya Universiteti, Maryland, Pennsilvaniya davlat universitetlari, Georgia texnika instituti, Fransiyaning Sorbonna universiteti, Shveytsariyaning Zurich universiteti, Buyuk Britaniyaning Warvick universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasining V.A. Setklov nomidagi Matematika instituti, Yaponiyaning Kyushu, Keio universitetlari, Xitoyning Southern University of Science and Technology universiteti kabi ilg‘or ilmiy markazlarida sohaning turli yo‘nalishlari bo‘yicha keng miqyosda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

So‘nggi yillarda dinamik sistemalarni statistik nuqtai nazardan o‘rganish bo‘yicha bir qator muhim ilmiy natijalar olindi. Jumladan, geometrik Lorents attractori uchun korrelyatsiya funksiyasining kamayish tezligi exponensial ekanligi isbotlandi (Warwick universiteti, Buyuk Britaniya), “Sinai billiardi” deb ataladigan sistema oqimi uchun korrelyatsiya funksiyasining eksponensial tezlikda kamayishi isbotlandi (Italiyadagi Tor-Vergata, Fransiyadagi Sorbonna, va AQShdagi New York univesiteti olimlari hamkorlikda). Bu natijalar dinamik sistemalar vaqt o‘tishi bilan muvozanat o‘lchoviga eksponensial yaqinlashishini anglatadi. Bundan tashqari silliq Anosov diffeomorfizmlari uchun invariant o‘lchov tashqi ta'sirlarga nisbatan turg‘un va hatto silliq ekanligi isbotlandi (Institut des Hautes Etudes Scientifiques, Fransiya).

Shuni ta‘kidlash lozimki so‘nggi yillarda stoxastik differensial tenglamalarning egizi bo‘lmish tasodifiy dinamik sistemalar nazariyasi ham jadal rivonlanmoqda. Bu yo‘nalish bo‘yicha Australia, Italiya, Fransiya, Xorvatiya, Buyuk Britaniya va AQShning yetakchi ilmiy markazlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dinamik sistemalarda turg‘unlik nazariyasi A. Puankare, A.M.Lyapunov, A.Andronov, L.S. Pontryaginlar nomi bilan bog‘liq. Lyapunov ma‘nosida turg‘unlik deganda biz sistema yechiming topologik turg‘unligini tushunamiz. Turg‘unlik harakat barqarorligining matematik ifodasi bo‘lganligi sababli mexanikaning ko‘plab masalalarida o‘z tadbiqini topdi. Keyinchalik, 1937 yilda Pontryagin va Andronovlar tomonidan dinamik sistema trayektoriyalari tuzilishining turg‘unligi tushunchasi kiritilib, tekislikda sistemalar tuzilishining turg‘unligi uchun zaruriy va yetarli shartni topishga erishildi. O‘tgan asrning 60-yillarida M. Peixoto va M.Ch. Peixotolar tomonidan dinaimik sistema tuzilishining turg‘un bo‘lishi uchun yetarli shartlar topildi va bu shartlarni qonatlantiruvchi sistemalar diffeomorfizmlar oilasida hamma yerda zich ekanligini ko‘rsatildi. Shu yillari D.Anosov torning giperbolik avtomorfizmlari tuzilishi tug‘run ekanini isbotladi va bu sinfni umulashtirdi, so‘ngra bu sinf Anosov diffeomorfizmlari deb atala boshlandi. S.Smale bu tushunchani yanada umulashtirib, “Aksioma–A” deb nomlangan sinfni kiritdi. S.Smale va uning ilmiy maktabi vakillari tomonidan yuqori o‘lchovli fazolarda Andoronov-Pontryagin sistemalarining umulashmasi bugungi kunda Morse-Smale sistemalari deb ataluvchi sinf ekanini ko‘rsatildi.

Dinamik sistemalarning topologik xossalari bilan bir vaqtta giperbolik dinamik sistemalarni statistik nuqtai nazardan tadqiq qilina boshlandi. E.Hopf, D. Anosovlar giperbolik sistemalarning ergodik ekanini ko‘rsatgan bo‘lsa, Ya. Sinai tomonidan torning avtomorfizmlari uchun Markov bo‘laklashlarining kiritilishi dinamikani tadqiq qilishga statistik fizika usullarini qo‘llash imkonini berdi. Keyinchalik Markov bo‘laklashlari R.Bowen tomonidan “Aksioma–A” sistemalari uchun qurildi. Ular uchun maxsus Sinai-Ruelle-Bowen o‘lchovlari mavjud bo‘lishi va korrelatsiya funksiyasining exponentsial kamayishi, markaziy limit teorema va yana bir qancha statistik xossalar isbotlandi. Giperbolik sistemalarning geometriya va spectral nazariya bilan bog‘likligi sohaga ko‘plab yangi go‘yalar olib keldi. Masalan, Gauss egriligi manfiy bo‘lgan ko‘pxillik ustidagi geodezik chiqizlar Anosov (giperbolik) oqimi bo‘ladi va bu oqim ergodik, uning korrelatsiya koeffitsientlari exponensial kamayadi hamda ko‘pxillikda aniqlangan Laplas-Beltrami operatorining xos sonlari oqim aniqlagan transfer operatorining xos sonlariga bog‘liq bo‘ladi. Giperbolik sistemalarning eng katta kamchiligi, ular xar qanday ko‘pxillik ustida ham aniqlanavermaydi. Shuning uchun oxirgi 30 yilda giperbolik sistemalarni o‘z ichiga olgan, holatlar fazosi ixtiyoriy ko‘pxillik bo‘la oladigan kattaroq sinfni aniqlash ustida ilmiy tadqiqot ishlari qizg‘in davom etmoqda.

Hozirgi kunda sohaning turli yo‘nalishlari bo‘yicha yurtimizda va horijda ko‘plab ilmiy maktablar faoliyat yuritmodqa. Turg‘unlik nazariyasi va uning bevosita davomi bo‘lmish optimal boshqaruv nazariyasi va differensial o‘yinlarga horijlik hamkasblar bilan birgalikda yurtimiz olimlari katta hissa qo‘shdilar. N.Satimov tomonidan quvishning 3-usuli deb ataluvchi usul yaratildi, bundan tashqari A.Azamov tomonidan tug‘unlik nazariyasi bo‘yicha umumlashgan xarakteristik ko‘rsatkichlarning turg‘unlik nazariyasiga tadbiqlari bo‘yicha, keyinroq esa Pontryagin taklif etgan alternirlangan integralning xossalari haqida muhim natijalar olindi. Keyinchalik differensial o‘yinlar nazariyasi rivojlanib, cheksiz o‘lvochli sistemalar bilan tavsiflanuvchi sistemalar uchun, Riman ko‘pxilliklarida berilgan sistemalar va inertsiyali ob‘ektlar harakitini ifodalovchi sistemalar hamda kechikuvchi parametrli sistemalar uchun differensial o‘yin masalalari bo‘yicha M.To‘xtasinov, G.Ibragimov, O.Qo‘chqorov, B.Samatov va N.Mamadaliyevlar tomonidan salmoqli natijalar olindi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti ilmiy tadqiqot rejasidagi

OT-Ф4-84 “Polinomial sistemalar uchun diskret-sonli usul hamda uning siklik va boshqariluvchi jarayonlarni modellashtirishga tatbiqlari” (2017-2020 yillar) mavzusidagi fundamental loyihasi, “Dinamik jarayonlarning matematik modellari va ularning tatbiqlari” (2020-2024 yillar) mavzusidagi tadqiqot dasturlari boʻyicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan bevosita bogʻliq.

Tadqiqotning maqsadi statistik turgʻunlik, invariant oʻlchovning tashqi parametr boʻyicha uzluksizligi va silliqligi, invariant oʻlchovlarning asimptotik turgʻunligi va boshqariluvchanlik masalalarini yechishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalalri:

cheksiz oʻlchovli fazolarda aniqlangan boshqariluvchan sistemalarda asimptotik turgʻinlik masalalarini tadqiq qilish;

chekli oʻlchovli fazoda aniqlangan, oʻyinchilarning boshqaruviga integral cheklovlar qoʻyilgan differensial oʻyinlarda quvish-qochish masalasini yechish;

Lorenz attraktorining statistik turgʻunligini isbotlash;

tasodifiy dinamik sistemalarda statsionar oʻlchov silliqligini isbotlash uchun abstrakt usul ishlab chiqish;

tasodifiy dinamik sistemalar uchun deyarli barcha realizatsizyalarda korrelyatsiya funksiyasining kamayish tezligini baholash uchun abstrakt Yong minorasining tasodifiy analogini ishlab chiqish va uni kuchsiz giperbolik boʻlgan sistemalarda qoʻllashdan iborat.

Tadqiqotning obʻekti. Chiziqli boshqaruv sistemalari va kuchsiz giperbolik xaotik dinamik sistemalar.

Tadqiqotning predmeti. Dinamik va boshqariluvchi sistemalarning turgʻunligi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada differensial tenglamalar, operatorlar nazariyasi, dinamik sistemalar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi usullari qoʻllanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

cheksiz oʻlchovli fazolarda aniqlangan boshqariluvchan sistemalarning yangi sinfining asimptotik turgʻun va nol boshqariluvchan ekani isbotlandi;

chekli oʻlchovli fazoda aniqlangan, oʻyinchilarning boshqaruviga integral chegaralanish qoʻyilgan differensial oʻyinlarda quvish-qochish masalalari yechildi;

Lorents attraktorining statistik turgʻunligi va dispersiyaning turgʻunligi isbotlangan;

tasodifiy dinamik sistemalarda statsionar oʻlchovning silliqligini isbotlash uchun abstrakt usul ishlab chiqilgan va bu usul yordamida Gauss-Reyni, Manniville-Pomeau akslantirishlarining silliq oʻzgarishi isbotlangan;

tasodifiy dinamik sistemalar uchun deyarli barcha realizatsiyalarda korrelyatsiya funksiyasining kamayish tezligini baholash uchun abstrakt Yong minorasining tasodifiy analogi ishlab chiqilgan va bu usul yordamida kuchsiz giperbolikka ega tasodifiy sistemalar va ularning qoʻzgʻatishlari uchun korrelyatsiya funksiyasining kamayish tezligi uchun baholar olingan;

kritik takrorlanish hodisasi logistik oilaga tegishli akslantirishlarning tasodifiy kompozitsiyalaridan hosil boʻlgan sistema uchun isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalarning ishonchliligi differensial tenglamalar, funksional analiz, extimollar nazariyasi, dinamik sistemalar nazariyasi metodlariga asoslangan qa’tiy matematik isbotlar bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kuchsiz giperbolik tasodifiy dinamik sistemlarning statistik tadqiq qilish usullarini rivojlantirilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dinamik sistemalarni tadqiq etishning sifat nazariyasiga tatbiq etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dinamik sistemalarda turg‘unlik, ergodiklik va boshqaruv masalalarida olingan natijalar asosida:

tasodifiy dinamik sistemalarda statsionar o‘lchov silliqligini isbotlash uchun ishlab chiqilgan abstrakt usuldan IP-2019-04-1239 raqamli “Transfer operatorlar, limit qonuniyatlar va cheksiz o‘lchovli dinamik sistemalar” mavzusidagi xorijiy loyihada tasodifiy dinamik sistemalar uchun chiziqli javob masalasini yechishda foydalanilgan. (Rijeka Universitetining 2023 yil 21-noyabrdagi ma’lumotnomasi, Xorvatiya). Ilmiy natijalarning qo‘llanishi kuchsiz giperboliklikka ega bo‘lgan tasodifiy sistemalarda chiziqli javob masalasini yechish imkonini bergan.

Lorents attraktorining statistik turg‘unligi va cheksiz o‘lchovli fazolarda aniqlangan boshqaruv sistemalari uchun olingan natijalardan OT-F4-(36+32) raqamli “Matematik fizika va optimal boshqaruv masalalarini yechishning yangi usullarini ishlab chiqish. Toq tartibli xususiy hosilali tenglamalar uchun noklassik boshlang‘ich va chegaraviy masalalar va ularning tadbiqlari” mavzusidagi loyihada optimal boshqaruv masalalarini yechishning yangi usullarini ishlab chiqish va ularni sonli amalga oshirishda kelib chiqadigan chiziqsiz masalalarni yechishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2023 yil 28-dekabrdagi №04/11-9455-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi cheksiz differensial tenglamalar bilan ifodalanuvchi sistemalar uchun optimal boshqaruv sintezini qurish imkonini bergan.

Kuchsiz giperbolik sistemalarda korrelyatsiya funksiyasining kamayish tezligini baholash uchun ishlab chiqilgan abstrakt usuldan xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalarda korrelyatsiya funksiyasining kamayish tezligini baholash uchun foydalanilgan (Advances in Math, 2023, vol 426, Ann. Probab. 2022, 50 (1) 241 - 303, Commun. Math. Phys. 2021, 385, 905–935). Ilmiy natijalarning qo‘llanishi kuchsiz giperboliklikka ega bo‘lgan sistemalarda korrelyatsiya funksiyasining kamayishi uchun baholar chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari dunyoing yetakchi ilmiy markazlarida tashkil etilgan 9 ta xalqaro ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya natijalari bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shundan 13 ta ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari (DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 12 ta ilmiy maqola “Scopus” va “Web of Science Core Collection” ma’lumotlar bazasida indekslangan ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umimiy hajmi 197 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati ko‘rsatilgan, ilmiy tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning obekti, maqsadi, vazifalari va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ziddiyatli va ziddiyatsiz boshqariluvchan sistemalar”** deb nomlanuvchi birinchi bobi asimptotik turg‘ulikka oid natijalarni o‘z ichiga oladi.

Quyidagi taqsimlangan parameterli sistemani qaraymiz

$$w_t = Aw + v, \tag{1}$$

bunda $w(x,t)-$ skalyar holat funksiyasi $x=(x_1,...,x_d)$ vektor va t vaqtga bog‘liq. v boshqaruv parametri va u $v(t,x),$ kabi tanlanadi. A differensial operator bo‘lib tartibi $2m$ ga teng.

(1) tenglama $\Delta = \bar{\Omega}\times\left[0,+\infty\right)$ sohada qaraladi. Bu yerda $\Omega \subset R^d$ chegarasi Γ bo‘lakli silliq bo‘lgan ochiq, chegaralangan to‘plam. Quyidagi chegaraviy shartlar qaraladi:

$$w(x,0)=w_0(x),\ x\in\Omega,\ Mw=0,\ x\in\Gamma;\ M=(M_1,M_2,...,M_m). \tag{2}$$

bunda $M_1,M_2...,M_m$ tartibi $2m$ dan kichik bo‘lgan differensial operatorlar.

Boshqaruv parametri $v\in L_2(\Delta)$ va biror $v^0>0$ uchun quyidagi

$$\left|v(x,t)\right|\le v^0,\ x\in\Omega,\ t\ge 0, \tag{3}$$

Tengsizlikni qanoatlantirsa, v joiz boshqaruv deyiladi.

Boshqaruv masalasida (1) tenglamaning (2) shartlarni qanoatlantiruvchi $w(x,t)\in W^{2m,1}\left(\Delta\right)$ yechimi mavjud bo‘ladigan va bu yechim biror $T, T>0$ va deyarli barcha $x\in\Omega$ uchun $w(x,T)=0$ shartni qanoatlantiradigan $v(x,t)$ funksiyani topish talab etiladi. Bunday joiz boshqaruvlarga kafolatlangan boshqaruv, T esa kafolatlangan o‘tish vaqti deyiladi. Barcha joiz boshqaruvlar bo‘yicha olingan minimum $T^*=\inf T$ optimal o‘tish vaqti deyiladi, T^* erishadigan boshqaruv optimal boshqaruv deyiladi.

(1) tenglamadagi A operatorning xos funksiyalaridan tuzilgan $\left\{\varphi_k(x)\right\}$ sistema to‘la bo‘lsin deb faraz qilamiz. Hamda $w(x,t)$ va $v(x,t)$ uchun mos ravishda quyidagi:

$$w(x,t)=\sum_k q_k(t)\varphi_k(x),\quad v(x,t)=\sum_k \tilde{u}_k(t)\varphi_k(x)$$

yoyilmalar o‘rinli bo‘lsin. U holda $w(x,t)$, $v(x,t)$ juftlk (1) – (3) masalaning yechimi bo‘lishi q_k va $\tilde{u}_k$ funksiyalarning

$$\dot{q}_k + \lambda_k q_k = \tilde{u}_k \tag{4}$$

cheksiz sistemani

$$q_k(0) = q_k^0 = \int_\Omega w_0(x)\varphi_k(x)dx. \tag{5}$$

boshlang‘ich shartlar bilan qanoatlantirishiga teng kuchli. Bu holda (3) shart

$$\sup_{x\in\Omega}\left|\sum \varphi_k(x)\tilde{u}_k(t)\right| \le v^0.$$

shartga o‘tadi. Yuqoridagi shartni qanoatlirish uchun $\tilde{u}_k$ funksiyalarni

$$\sum_k \Phi_k \left|\tilde{u}_k(t)\right| \le v^0, \tag{6}$$

tengsizlik bajariladigan qilib tanlash yetarli, bu yerda $\Phi_k = \sup\limits_{x\in\Omega}\left|\varphi_k(x)\right|$. F. L. Chernouskoning optimal boshqaruvni dekompozitsiya qilish usuli bilan izlash haqidagi ilmiy ishida (6) tengsizlikni $\left|\tilde{u}_k\right| \le U_k$, $k \ge 1$, shartlar bilan almashtiradi, bunda U_k lar $\sum\limits_k \Phi_k U_k \le v^0$ tengsizlkni qanoatlantiradigan qilib tanlangan. Tabiyki, oxirgi shartdan (6) tengsizlik kelib chiqadi, ammo teskarisi o‘rinli emas. (4)-(6) sistema uchun nol boshqaruv masalasini ω-boshqaruv masalasi deb ataymiz. Chiziqli almashtirishlar yordamida (4) sistema va (6) shartni quyidagi ko‘rinishga keltiramiz

$$\dot{y}_k + \lambda_k y_k = u_k, \sum_k \left|u_k\right| \le 1. \tag{7}$$

Ixtiyoriy musbat n soni uchun ushbu

$$\dot{y}_j + \lambda_j y_j = u_j, U = \left\{u \in R^n \middle| \left|u_1\right| + \left|u_2\right| + ... + \left|u_n\right| \le 1\right\} \tag{8}$$

sistemani qaraymiz. (7)-(8) masala chekli o‘lchovli fazoda aniqlangan va uning uchun boshqaruv sohasi uchlari

$$e_j^\sigma = \sigma(\delta_{j1},...,\delta_{j2},...,\delta_{jn}), \quad \sigma \in \{-1,+1\}$$

bo‘lgan n o‘lcholvi oktaedrdan iborat, bu yerda δ_{ji} Kroneker deltasi.

L.S. Pontryaginning maksimum prinsipini qo‘llaymiz: barcha $k \ne l$ uchun $\lambda_k \ne \lambda_l$ ekanidan (7)-(8) tezkorlik masalasining yechimi mavjud va yagona, hamda bo‘lakli o‘zgarmas. Xos sonlar nomanfiyligidan ixtiyoriy nuqtadan boshlangan optimal boshqaruv mavjud bo‘ladi va optimal trayektoriyalar

$$\dot{y}_j = -\lambda_j y_j \pm 1, \ \dot{y}_s = -\lambda_s y_s \ \text{ bu yerda } s \ne j, j \le n$$

tenglamalar sistemasining yechimi bo‘ladi. Bu tengliklarda $y_j(t) = 0$ tenglamani y_j^0 ga nisbatan yechsak, barcha $j = 1,2,...,n-1$ lar uchun

$$T_j = \frac{1}{\lambda_j}\ln\left(\lambda_j\left|y_j^0\right| + e^{\lambda_j T_{j-1}}\right) = \frac{1}{\lambda_j}\ln\left(\lambda_j\left|y_n^0\right|e^{-\lambda_n T_{j-1}} + 1\right) + T_{j-1}; \quad T_0 = 0, \quad (9).$$

rekurrent munosabatlar hosil bo‘ladi. Shu sababli optimal trayektoriya uchun $y_j(T_j)=0$ o‘rinli bo‘ladi. Bu yerdan optimal boshqaruv oson topiladi:

$$u_j(t)=\begin{cases}-sgny_j^0 \text{ agar}\left[T_{j-1},T_j\right), \\ 0 \ \text{ agar } t\in\left[0,T_j\right]\setminus\left[T_{j-1},T_j\right).\end{cases}$$

1-teorema. *Agar (9) munosabatning $n\to\infty$ dagi limiti $T_*(y^0)$ mavjud bo‘lsa, bu limit (4)-(6) ω – boshqaruv masalasi uchun optimal o‘tish vaqti bo‘ladi. Bundan tashqari quyidagi tengsizlik o‘rinli*

$$T_*\le\left|y_p^0\right|+\sum_{k=p+1}^{\infty}\left|y_k^0\right|e^{-\lambda_k\left|y_p^0\right|}.$$

bu yerda p soni: $y_p^0\neq 0$ shartni qanoatlantiruvchi eng kichik natural son.

Quyidagi standard belgilashlarni kiritamiz:

$$\ell^2=\{y=(y_1,y_2,\ldots)\,|\sum\nolimits_{n\ge1}y_n^2<\infty\}.$$

Ma’lumki, ℓ^2 fazosida $\|y\|_2^2=\sum\nolimits_{n\ge1}y_n^2$ norma aniqlangan. Banax fazosidagi oddiy differensial tenglamaga misol sifatida quyidagi sistemani qaraymiz:

$$\dot{y}=Ay,\quad y(0)=y_0,$$

bu yerda $y_0=\{y_{n,0}\}_{n\in\mathbb{N}}$ va $A:\ell^2\to\ell^2$ esa $Ay=\{\lambda y_n+y_{n+1}\}_{n\in\mathbb{N}}$, tenglik bilan aniqlangan chiziqli operator. Endi ushbu tenglama uchun turg‘unlik va boshqaruv masalalarini tadqiq qilamiz. Xususan, boshqaruv funksiyasini oshkor ko‘rinishda quramiz. Shuningdek, $f\in L^2([0,T],\ell^2)$, ya’ni $\|f\|_{L^2}^2=\int_0^T\|f(t)\|_2^2\,dt<+\infty$[1] uchun ushbu

$$\dot{y}=Ay+f,\quad y(0)=y_0, \tag{10}$$

bir jinsli bo‘lmagan tenglama uchun Koshi masalasini ko‘rib chiqamiz.

Ushbu

$$y(t)=e^{tA}y_0+e^{tA}\int_0^t e^{-sA}f(s)ds$$

ko‘rinishda aniqlangan $y:[0,T]\to\ell^2$ funksiya (10) tenglamaning “yumshoq” yechimi deyiladi. Bu yerda integrallash komponentlar bo‘yicha tushuniladi.

1-tasdiq. *Barcha $f\in L^2([0,T],\ell^2)$ va $y_0\in\ell^2$ uchun $y\in C([0,T],\ell^2)$ bo‘ladi.*

2-tasdiq. *Aytaylik $y(t)$ funksiya (10) masalaning $y_0\in\ell^2$ boshlang‘ich sharni qanoatlantiruvchi yechimi bo‘lsin. (10) sistema asimptotik turg‘un bo‘lishi uchun $\lambda\le-1$ bo‘lishi zarur va yetarli. Bundan tashqari, har qanday $y_0\in\ell^2$ va $t\in\mathbb{R}$ uchun $\|e^{tA}y_0\|_2\le e^{(1+\lambda)t}\left\|y_0\right\|_2$ tengsizlik o‘rinli bo‘ladi.*

Aytaylik $\rho>0$ bo‘lsin. Agar $f:\mathbb{R}\to\ell^2$ boshqaruv funksiyasi uchun

---

[1] Beppo-Levi teoremasiga ko‘ra ushbu normaning $\|f\|_{L^2}^2=\sum\nolimits_{n\ge1}\int_0^T|f_n(t)|^2\,dt$ ga mos kelishini qayd etamiz.

$$\| f \|_{L^2}^2 = \int_0^T \| f(t) \|_2^2 \, dt \le \rho^2$$
tengsizlik o‘rinli bo‘lsa, u holda bunday boshqaruv funksiyasi joiz boshqaruv deb ataladi.

Agar shunday $f : \mathbb{R} \to \ell^2$ joiz boshqaruv va $T = T(f) \in \mathbb{R}_+$ mavjud bo‘lib, (10) sistemaning yechimi $y(T) = 0$ tenglikni qanoatlantirsa, u holda (10) sistemani $y_0 \in \ell^2$ nuqtadan “*nol-boshqariluvchan”* deyiladi.

Agar shunday $\delta = \delta(\rho) > 0$ topilib, (10) sistema $\|y_0\| \le \delta$ shartni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy $y_0 \in \ell^2$ nuqtadan nol-boshqariluvchan bo‘lsa, u holda (10) sistema *local nol-boshqariluvchan* deyiladi.

Agar sistema ixtiyoriy $y_0 \in \ell^2$ nuqtadan nol-boshqariluvchan bo‘lsa, u holda (10) sistema *global nol-boshqariluvchan* deyiladi.

2-teorema. (i) *Barcha* $\lambda \in \mathbb{R}$ *uchun* (10) *sistema local nol-boshqariluvchan bo‘ladi;*

(ii) (10) *sistema global nol-boshqariluvchan bo‘lishi uchun* $\lambda \le -1$ *bo‘lishi zarur va yetarli.*

(iii) *Agar* $\lambda < -1$ *bo‘lsa, shunday* κ *topilib, ixtiyoriy* $y_0 \in \ell^2$ *nuqtadan 0 ga o‘tish vaqti* τ *uchun* $\tau \le \|y_0\|_2^4 / \kappa\rho^4$ *tengsizlikni qanoatlantiradi.*

Ta’kidlash joizki, $-1 < \lambda < 0$ uchun $t \to +\infty$ da $\|y(t)\|_2 \to \infty$ bo‘lgan yechimlar mavjud, ya’ni $y = 0$ yechim Lyapunov ma’nosida turg‘un emas.

1-izoh. $\dot{y} = Ay$, $y(0) = y_0 \in \ell^\infty$ sistemani qaraymiz, bu yerda
$$\ell^\infty = \{ y = (y_1, y_2, \ldots) \mid \sup_{n \in \mathbb{N}} | y_n | < \infty \}.$$
Ravshanki, $e = (1,1,1\ldots) \in \ell^\infty$ – e^{tE} ning e^t xos qiymatiga mos xos vektor. Demak, 0-yechim Lyapunov ma’nosida turg‘un, lekin u asimptotik turg‘un emas.

Boshqaruvchanlikni isbotlash uchun Gram operatorlaridan foydalanamiz, ya’ni ixtiyoriy $\tau \in \mathbb{R}$ uchun quyidagi operatorni qaraymiz
$$W(\tau) = \int_0^\tau e^{-sA} \cdot e^{-sA^*} ds.$$
W operatorning o‘z-o‘ziga qo‘shma ekanligi va uning teskarisining normasini baholash quyidagi standart lemmadan kelib chiqadi:

1-lemma. *Aytaylik* $L : \mathcal{H} \to \mathcal{H}$, $(\mathcal{H}, \| \cdot \|)$ *Hilbert fazosida aniqlangan o‘z-o‘ziga qo‘shma operator hamda barcha* $x \in L$ *uchun* $\| Lx \| \ge \kappa \| x \|$ *tengsizlik o‘rinli bo‘ladigan* $\kappa > 0$ *mavjud bo‘lsin. U holda* L *teskarilanuvchi va* $\| L^{-1} \| \le \kappa^{-1}$ *tengsizlik bajariladi.*

Endi quyidagi sanoqli differensial tenglamalar bilan aniqlangan
$$\dot{x}_i = A_i x_i + u_i - v_i, \; x_i(0) = x_{i0} \in \mathbb{R}^{d_i}, \; i = 1, 2, ..., \qquad (11)$$
differensial o‘yinni qaraymiz. Bu yerda ixtiyoriy $i \in \mathbb{N}$ uchun A_i matritsalar $d_i \times d_i$ tartibli, biror d uchun $2 \le d_i \le d$ shartni qanoatlantiradi, u_i va v_i – mos

ravishda quvlovchining va qochuvchining boshqaruv parametrlari. Boshqaruv parametrlari ma'lum bir cheklovlarni qanoatlantiruvchi funksiyalar deb qaraladi. Ixtiyoriy $x_0 = (x_{10}, x_{20}, \ldots,) \in \ell^2$ uchun $\| x \|^2 = \sum_{i=0}^{\infty} \| x_{i0} \|^2 < +\infty$ normani aniqlaymiz. Bu yerda $\| x_{i0} \|$ – $x_{i0} \in \mathbb{R}^{d_i}$ Yevklid normasi. Shuningdek $A = \mathrm{diag}(A_1, A_2, \ldots)$ – operator uchun e^{tA} operatorni aniqlaymiz va (11) bilan bir qatorda bir jinsli bo'lmagan tenglamani ham qaraymiz, bu yerda $w_i : \mathbb{R} \to \mathbb{R}^{d_i}$ lokal integrallanuvchi funksiyalar. Quyidagi

$$\dot{x}_i = A_i x_i + w_i, \ x_i(0) = x_{i0} \in \mathbb{R}^{d_i}, \ i = 1, 2, \ldots, \tag{12}$$

Koshi masalasining yechimi mavjudligini isbotlash kerak. $C([0,T];\ell^2)$ uzluksiz funksiyalar fazosidan biror $T > 0$ uchun (12) masalaning shunday yechimini izlaymizki, $x : [0,T] \to \ell^2$ ning $x_i(\cdot)$ koordinatalari deyarli hamma joyda differensiallanuvchi bo'lsin.

1-ta'rif. *Agar singulyar bo'lmagan $\{P_i\}_{i \in \mathbb{N}}$ matritsalar oilasi va o'zgarmas $C \geq 1$ mavjud bo'lib, $\| P_i \| \cdot \| P_i^{-1} \| \leq C$ va $P_i A_i P_i^{-1}$ barcha $i \in \mathbb{N}$ uchun Jordan normal ko'rinishdagi matritsalar bo'lsa, $\{A_i\}_{i \in \mathbb{N}}$ matritsalar oilasi tekis normallanuvchi deyiladi.*

Tayinlangan $\theta > 0$ uchun

$$\sum_{i=1}^{\infty} \int_0^T \| w_i(s) \|^2 \, ds \leq \theta^2$$

cheklovni qanoatlantiruvchi $w_i(\cdot) \in \mathbb{R}^{d_i}$, $0 \leq t \leq T$, $i = 1, 2, \ldots$, o'lchovli koordinatalarga ega barcha $w(\cdot) = \left(w_1(\cdot), w_2(\cdot), \ldots \right)$, $w : [0,T] \to \ell^2$ funksiyalar to'plamini $B(\theta)$ bilan belgilaymiz.

2-ta'rif. *$B(\theta)$ joiz boshqaruv funksiyalar to'plami deb ataladi.*

3-**teorema.** *Agar $\{A_i\}$, $i = 1, 2, \ldots$, tekis normallanuvchi matritsalar oilasida har bir A_i, $i = 1, 2, \ldots$, matritsaning xos qiymatlari haqiqiy qismlari manfiy bo'lsa, u holda (12) sistema ixtiyoriy $w \in B(\theta)$, $\theta > 0$ va ixtiyoriy $x_0 \in \ell^2$ uchun yagona yechimga ega bo'ladi. Shuningdek, $x(t) = (x_1(t), x_2(t), \ldots)$ yechimning tegishli komponentlari*

$$x_i(t) = e^{tA_i} x_{i0} + \int_0^t e^{(t-s)A_i} w_i(s) ds, \quad i \in \mathbb{N},$$

ko'rinishda aniqlanadi.

4-teorema. 3-*teorema shartlari bajarilganda (12) sistema global asimptotik turg'un va global nol-boshqariluvchan bo'ladi. Tezkorlik masalasining yechimi mavjud va uni oshkor ravishda qurish mumkin.*

Endi (11) differensial o'yinga qaytamiz. Berilgan $\rho, \sigma > 0$ sonlari uchun $u(\cdot) \in B(\rho)$ $(v(\cdot) \in B(\sigma))$ funksiyani quvlovchining (qochuvchining) joiz boshqaruvi deyiladi.

3-ta'rif. *Har bir* $v \in \ell^2$ *uchun koordinatalari* $u_k(t) = v_k(t) + \omega_k(t)$, $\omega \in B(\rho - \sigma)$ *bo'lgan* $u:[0,T] \times \ell^2 \to \ell^2$ *quvlovchining joiz boshqaruvi quvlovchining strategiyasi deyiladi.*

5-teorema. *Faraz qilaylik,* $\rho > \sigma$ *va 3-teorema shartlari bajarilsin. U holda qochuvchining ixtiyoriy* v *joiz boshqaruvi uchun quvlovchining shunday* u *strategiyasi va* $\vartheta_1 > 0$ *mavjudki, (11) differensial o'yinning yechimi biror* $0 \le \tau \le \vartheta_1$ *uchun* $x(\tau) = 0$ *tenglikni qanoatlantiradi, ya'ni (11) o'yinni* ϑ_1 *vaqtda yakunlash mumkin.*

Quyigadi chiziqli tenglama bilan tavsiflanuvchi differesial o'yinni qaraymiz

$$\dot{x}_i = -\lambda_i x_i + v - u_i, \quad x_i(0) = x_i^0 \in \mathbb{R}^n, \quad i = 1, 2, \ldots, m, \tag{13}$$

bu yerda $u_1, \ldots, u_m$ – quvlovchilarning, v – qochuvchining boshqaruv parametrlari va $\lambda_i > 0$, $x_i \in \mathbb{R}^n$, $n \ge 2$, $x_i^0 \ne 0$, $i = 1, \ldots, m$.

5-ta'rif. *Ushbu*

$$\int_0^\infty |u_i(t)|^2\, dt \le \rho_i^2, i = 1, \ldots m; \int_0^\infty |v(t)|^2\, dt \le \sigma^2, \tag{14}$$

integral cheklovlarni qanoatlantiruvchi $u_i(t)$ *va* $v(t)$, $t \ge 0$ *o'lchovli funksiyalar, mos ravishda,* $i-$*chi quvlovchi va qochuvchining boshqaruvlari deb ataladi.*

6-teorema. *Agar*

$$\rho_1^2 + \ldots + \rho_m^2 \le \sigma^2,$$

bo'lsa, u holda (13)-(14) o'yinda qochish mumkin, ya'ni qochuvchining oshkor ko'rinishda qurilgan V strategiyasi mavjud bo'lib, quvlovchilarning har qanday boshqaruvi uchun barcha $i = 1, \ldots, m$ *va* $t \ge 0$ *uchun* $x_i(t) \ne 0$ *munosabat bajariladi.*

Dissertatsiyaning **"Lorents sistemasi uchun statistik xossalarning turg'unligi"** deb nomlangan ikkinchi bobida Lorents sistemasi uchun markaziy limit teoremada dispersiyaning uzluksizligi va sistema invariant o'lchovining uzluksizligi o'rganiladi. Lorents atmosferadagi konveksiya uchun soddalashtirilgan model sifatida quyidagi tenglamalar sistemasini taklif qilgan.

$$\dot{x} = -10x + 10y, \quad \dot{y} = 28x - y - xz, \quad \dot{z} = -\frac{8}{3}z + xy. \tag{15}$$

Lorents tomonidan o'tkazilgan sonli tahlil bu sistemaning boshlang'ich shartlarga nisbatan yuqori sezgirligini va davriy bo'lmagan "g'aroyib" attraktorga ega ekanligini ko'rsatgan. Shunga o'xshash oqimlarning qat'iy matematik asoslari ilmiy ishlarda geometrik Lorents oqimini kiritish orqali boshlangan. Bugungi kunda X_0 vektor maydon bilan aniqlanadigan geometrik Lorents attraktori, C^1 topologiyada barqaror ekanligi yaxshi ma'lum. Bu agar X_ε vector maydonlar X_0 ga C^1 topologiyada yaqin bo'lsa, u holda bunday vector maydonlar ham Lorents attraktoriga o'xshash attraktorga ega bo'lishini bildiradi. Aniqroqg'i, X_0 ga C^1 topologiyasida yetarlicha yaqin bo'lgan X_ε vektor maydonlar Puankare kesimida invariant, qisqartuvchi $\mathcal{F}_\varepsilon$ foliyatsiyalarga ega va ular g'aroyib attraktorlar hosil qiladi. Aniqroq qilib aytganda, $\mathbb{R}^3$ ichida Λ, ya'ni X_0 ning attraktori joylashgan ochiq soha U va X_0 ning C^1 topologiyasidagi ochiq soha $\mathcal{U}$ mavjud bo‘lib, har bir $X_\varepsilon \in \mathcal{U}$ ning trayektoriyalari U ichida yotib, maksimal invariant to‘plam $\Lambda_{X_\varepsilon} = \bigcap_{t\geq 0} X_\varepsilon^t(U)$ tranzitiv va X_ε oqimiga nisbatan invariantdir.

$C^{1+\alpha}$ **turg‘un foliatsiyaga ega geometrik Lorents oqimi.** $X_0 : \mathbb{R}^3 \to \mathbb{R}^3$ vektor maydoni bo‘lib, 0 uning muvozanat nuqtasi bo‘lsin. Faraz qilaylik, X_0 quyidagilarni qanoatlantirsin:

• $DX_0(0)$ differensiali uchta haqiqiy $\lambda_2 < \lambda_3 < 0 < \lambda_1$, $\lambda_1 + \lambda_3 > 0$ hos sonlarga ega bo‘lsin (Lorenz tipidagi maxsuslik) va $\lambda_1 + \lambda_2 < \lambda_3$. Bundan tashqari,

$$\Sigma := \left\{ (x, y, 1) \,|\, -\frac{1}{2} \leq x, y \leq \frac{1}{2} \right\}$$

Puankare kesimi bo‘lib, Σ va 0 nuqtadagi lokal turg‘un ko‘pxillikining kesishmasi $\Gamma = \left\{ (0, y, 1) \,|\, -\frac{1}{2} \leq y \leq \frac{1}{2} \right\}$ bo’lsin va Σ ni mos ravishda quyidagi ikki qismga ajratsin:

$$\Sigma^+ = \{(x, y, 1) \in \Sigma : x > 0\} \text{ va } \Sigma^- = \{(x, y, 1) \in \Sigma : x < 0\}.$$

Puankare asklantirishi $F : \Sigma \to \Sigma$ orqali $\Sigma^\pm$ sohalarning tasvirlari $S^\pm$ egri uchburchaklar shaklida bo‘lsin. Bunda $(\pm 1, 0, 1)$ dan tashqari, va $\mathcal{F} = \{(x, y, 1) \in \Sigma \,|\, x = \text{const}\}$ to‘plamidagi har bir kesma, Γ ni hisobga olmaganda, $\{(x, y, 1) \in S^\pm \,|\, x = \text{const}\}$ segmentga akslanadi. $S^\pm$ va qaytish vaqti $\tau : \Sigma \setminus \Gamma \to \mathbb{R}$ quyidagicha bo‘lsin: $\tau(x, y, 1) = -\frac{1}{\lambda_1} \log |x|$.

• Oqim Σ ni silliq tarzda $S^\pm$ ga akslantiradi. Bunda Puankare akslantirishi $F(x, y) = X_0^{\tau(x,y,1)}((x, y, 1), t)$ quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lsin:

$$F(x, y) = (T(x), g(x, y)),$$

bu yerda $T : I \to I$, $I := [-1/2, 1/2]$, va $x = 0$ uzilish nuqtasi, hamda $T(0^+) = -1/2$ va $T(0^-) = 1/2$;

• T o‘suvchu va $C^1(I \setminus \{0\})$ sinfga tegishli;

• $\lim_{x \to 0^\pm} T'(x) = +\infty$;

• $\frac{1}{T'}$ funsiya $I_1 := [-\frac{1}{2}, 0]$ va $I_2 := [0, \frac{1}{2}]$ intervallarda α-Ho‘lder uzluksiz bo‘lsin, bu yerda $0 < \alpha \leq 1$;

• Shunday $C > 0$ va $\theta > 1$ topilib, ixtiyoriy $n \in \mathbb{N}$ uchun $(T^n)'(x) \geq C\theta^n$;

• T tranzitiv (ya’ni hamma yerda zich trayektoriyaga ega nuqtasi bor);

• g akslantirsh $\mathcal{F}$ ni saqlaydi va tekis qisqartuvchi, ya’ni shunday $K > 0$ va $0 < \rho < 1$ topilib, ixtiyoriy $\gamma \in \mathcal{F}$ va $\xi_1, \xi_2 \in \gamma$ va $n \geq 1$ uchun

$$\operatorname{dist}(F^n(\xi_1),F^n(\xi_2))\le K\rho^n\operatorname{dist}(\xi_1,\xi_2).$$

Universal p-cheklangan variatsiya. Agar $p\ge 1$ uchun

$$V_p(f):=\sup_{-1/2\le x_0<\ldots<x_n\le 1/2}\left(\sum_{i=1}^{n}\left|f(x_i)-f(x_{i-1})\right|^p\right)^{1/p}<+\infty.$$

tengsizlik bajarilsa, u holda $f:I\to\mathbb{R}$ funksiya universal p variatsiyasi cheklangan funksiya deyiladi. Universal p variatsiyasi checklangan funksiyalar $UBV_p(I)$ bilan belgilanadi. Endi $p:=\dfrac{1}{\alpha}$ deb belgilaymiz. X_0 ning C^1 qo‘zg‘atishlari oilasi $\mathcal{X}$ ni quyidagicha aniqlaymiz: $\mathbb{R}^3$ da X_0 ning attraktori bo‘lgan Λ ni o‘z ichiga olgan ochiq soha U va $\mathcal{X}$ ni o‘z ichiga olgan X_0 ning ochiq atrofi $\mathcal{U}$ mavjud bo‘lib, quyidagilar tasdiqlar o‘rinli bo‘lsin:

1. har bir $X_\varepsilon\in\mathcal{X}$ uchun maksimal musbat invariant to‘plam $\Lambda_{X_\varepsilon}\subset U$ giperbolik maxsuslikka ega bo‘lgan attraktor;

2. har bir $X_\varepsilon\in\mathcal{X}$ aniqlagan oqim uchun Σ Puankare kesimi bo‘lib, qaytish vaqti τ_ε va Puankare akslantirishsi F_ε mavjud;

3. har bir $X_\varepsilon\in\mathcal{X}$ uchun $F_\varepsilon:\Sigma\to\Sigma$ qisqartuvchi, qisqartish koeffitsienti ε ga bog‘liq bo‘lmagan $C^{1+\alpha}$ invariant $\mathcal{F}_\varepsilon$ foliatsiyaga ega;

4. $F_\varepsilon:\Sigma\to\Sigma$ quyidagicha aniqlangan[1]

$$F_\varepsilon(x,y)=(T_\varepsilon(x),g_\varepsilon(x,y));$$

5. $T_\varepsilon:I\to I$ akslantirish ikki tarmoqli va uzilish nuqtasi O_ε ga ega bo‘lgan C^1 tranzitiv va har bir tarmog‘i kengaytiruvchi bo‘lib, $T(O^+)=-\dfrac{1}{2}$, $T_\varepsilon(O^-)=\dfrac{1}{2}$ va $x\to O^{\pm}{}_\varepsilon$ da $\lim\limits_{\varepsilon\to 0}T'_\varepsilon(x)=+\infty$;

6. Har qanday $\eta_0>0$ uchun $H(\eta_0)\subset I$ interval mavjud bo‘lib, barcha $0\le\eta<\eta_0$ uchun $\{O_\varepsilon,0\}\in H,\ |H|=2|O_0|<\eta;$ va

$$d(T,T_\varepsilon):=\sup_{x\in H^C}\{|T_\varepsilon(x)-T(x)|+|T'_\varepsilon(x)-T'(x)|\}\le C\eta,$$

bu yerda $H^c:=I\setminus H$;

7. ε va x bo‘yicha shunday $C>0$ va $\theta>1$ o‘zgarmaslar mavjud bo‘lib, $T_\varepsilon^n(x)\ge C\theta^n$ tengsizlik O_ε uzilish nuqtasidan tashqari barcha nuqtalarda bajariladi;

8. ε ga bog‘liq bo’lmagan $W>0$ mavjud bo‘lib, quyidagi

$$\max_{i\in 1,2}V_{p|_{I_i,}}\left(\frac{1}{T'_\varepsilon}\right)\le W,$$

tengsizlik o‘rinli, bu yerda I_i, T_ε ning monotonlik intervali va $V_p(\cdot)$ p-variatsiyadir;

---

[1] c) bandiga ko‘ra, g $C^{1+\alpha}$ va turg’un barglarda bir tekis qisqaruvchi funksiyadir.

9. Ixtiyoriy $n>0$ uchun $\mathcal{P}^{(n)} := \vee_{j=0}^{\ell-1} T^{-j}(\mathcal{P}_\varepsilon)$ bo‘lsin, bu yerda $\mathcal{P}_\varepsilon = \{I_1, I_2,\}$ bo‘lib, ε ga bog‘liq bo‘lmagan shunday qiymat $\delta_n > 0$ mavjudki, $\mathcal{P}^{(n)}$ da J uchun $\min|J| \geq \delta_n$;

10. Qaytish vaqti $\tau_\varepsilon : \Sigma \setminus \Gamma_\varepsilon \to \mathbb{R}$ va ixtiyoriy $X \in \mathcal{X}$ uchun shunday $C>0$ topilib,

$$\tau_\varepsilon(\xi) \leq -C \log|\pi_\varepsilon(\xi) - O_\varepsilon|,$$

tengiszlik o‘rinli bo‘ladi. Bu yerda π akslantirish $\mathcal{F}_\varepsilon$ ning barglari bo‘ylab I ga proyeksiyalashdir.

Quyidagi fazolar 1985 yilda G. Keller tomonidan kiritilgan.

Banach fazosi. $S_\rho(x) := \{y \in I : |x-y| < \rho\}$ va $f: I \to \mathbb{R}$ bo‘lib, I intervalda aniqlangan funksiya bo‘lsin. Quyidagicha belgilashlarni kiritamiz:

$$\mathrm{osc}(f,\rho,x) := \{|f(y_1) - f(y_2)| : y_1, y_2 \in S_\rho(x)\},$$

va

$$\mathrm{osc}_1(f,\rho) = \|\mathrm{osc}(f,\rho,x)\|_1,$$

bu yerda “essential supremum” $I \times I$ da ikki o‘lchamli Lebeg o‘lchovi bo‘yicha olinadi, $\|\cdot\|_1$ esa I intervalda Lebeg o‘lchovi bo‘yicha L^1 normani bildiradi. Ixtiyoriy $p>1$ uchun $BV_{1,1/p} \subset L^1$ ekanligi uchun quyidagicha normani aniqlaymiz:

$$\|f\|_{1,1/p} = V_{1,1/p}(f) + \|f\|_1,$$

bu yerda

$$V_{1,1/p}(f) = \sup_{0<\rho\leq\rho_0} \frac{\mathrm{osc}_1(f,\rho)}{\rho^{1/p}}.$$

$\rho_0 > 0$ berilgan son. Qayd etish lozimki, $V_{1,1/p}(\cdot)$ ρ_0 ga bog‘liq. $BV_{1,1/p}$ Banach fazosi ekanligi ma’lum. Bundan tashqari, $BV_{1,1/p}$ ning birlik shari L^1 da kompakt.

Sinay-Ruelle-Bowen (SRB) o‘lchovi invariant o‘lchov bo‘lib:

• uning barcha Lyapunov ko‘rsatkichlari nolga teng emas;

• u sistemaning noturg‘un ko‘pxilliklari bo‘ylab tabiiy o‘lchovga (masalan, Lebeg o‘lchoviga) nisbatan absolyut uzluksiz shartli o‘lchovlarga ega.

Aytalik, V interval 0 ning biror atrofi bo‘lsin. $(X_\varepsilon)_{\varepsilon\in V}$ oqimlar oilasida biror $\mathfrak{T}$ topologiya kiritilgan bo‘lsin. Har bir X_ε yagona SRB o‘lchoviga ega bo‘lsin deb faraz qilamiz. $(X_\varepsilon)_{\varepsilon\in V}$ oilasi statistik turg‘un deb ataladi, agar $\varepsilon \mapsto \mu_\varepsilon = \mu_{X_\varepsilon}$ zaif $*$-topologiyada $\varepsilon = 0$ da uzluksiz bo‘lsa, ya’ni

$$\lim_{\varepsilon\to 0} \int f d\mu_\varepsilon = \int f d\mu_0,$$

tenglik har qanday $f: \mathbb{R}^3 \to \mathbb{R}$ uzluksiz funksiyasi uchun o‘rinli bo‘lsa. Statistik turg‘unlik diskret vaqtli dinamik sistemalar uchun ham xuddi shunday aniqlanadi.

7-teorema *$X \in \mathcal{X}$ bo‘lsin. Unda*

• *X_ε oqim μ_ε invariant ehtimollik SRB o‘lchovga ega.*

• *har qanday uzluksiz φ: $\mathbb{R}^3 \to \mathbb{R}$ uchun quyidagi tenglik o‘rinli:*

$$\lim_{\varepsilon\to 0}\int \varphi d\mu_\varepsilon = \int \varphi d\mu;$$

ya'ni $\mathcal{X}$ oila statistik turg'un. Bu yerda μ o'lchov X_0 oqimning SRB o'lchovi.

$\psi:\mathbb{R}^3\to\mathbb{R}$ bo'lsin. $\varepsilon\geq 0$ uchun quyidagi funksiyani aniqlaymiz:

$$\Psi_\varepsilon(\xi):=\int_0^{\tau_\varepsilon(\xi)}\psi(X_\varepsilon(t))dt, \text{ bu yerda } \xi:=(x,y,1)\in\Sigma\setminus\Gamma_\varepsilon.$$

8-*teorema* $\psi:\mathbb{R}^3\to\mathbb{R}$ *Ho'lder uzluksiz bo'lsin.*

• *Unda*

$$\frac{1}{\sqrt{t}}\left(\int_0^t \psi\circ X_\varepsilon(s)ds - t\int\psi d\mu_\varepsilon\right)dt \xrightarrow{\text{law}} \mathcal{N}(0,\sigma^2_{X_\varepsilon})$$

va

$$\sigma^2_{X_\varepsilon}(\psi_\varepsilon)=\sigma^2_{F_\varepsilon}(\Psi_\varepsilon)/\int\tau_\varepsilon d\mu_{F_\varepsilon}.$$

• *Bundan tashqari,* $\psi\in C^1$ *uchun quyidagi tenglik o'rinli:*

$$\lim_{\varepsilon\to 0}|\sigma^2_{X_\varepsilon}(\psi)-\sigma^2_X(\psi)|=0.$$

9-teorema *T_ε akslantirish $\mathcal{X}$ oilaga mos bir o'lchovli akslantirishlar oilasi bo'lib, μ o'lchov X_0 ning SRB o'lchovi bo'lsin. U holda,*

• *T_ε akslantirish $\sigma^2_{T_\varepsilon}$ dispersiya bilan markaziy limit teoremani qonoatlantiradi; ya'ni, $\psi: I\to\mathbb{R}$, $\psi\in BV_{1,1/p}$ bo'lib, $\int\psi d\bar{\mu}_\varepsilon=0$, bo'lsa, bu yerda $\bar{\mu}_\varepsilon$ absolyut uzluksiz T_ε ($\varepsilon\geq 0$) invariant o'lchov, u holda:*

$$\frac{1}{\sqrt{n}}\sum_{i=0}^{n-1}\psi(T_\varepsilon^i x)\xrightarrow{\text{law}}\mathcal{N}(0,\sigma^2_{T_\varepsilon})$$

o'rinli bo'ladi. Shuningdek, $\sigma^2_{T_\varepsilon}>0$ tengsizlik faqat va faqat $\psi\neq c+\nu\circ T-\nu$, $\nu\in BV_{1,1/p}$, $c\in\mathbb{R}$ bo'lganda o'rinli bo'ladi.

• *$\psi\in BV_{1,1/p}$ bo'lib, $\|\cdot\|_\infty$ normalar bo'yicha tekis chegaralangan va $\varepsilon\to 0$ da $\int|\psi_\varepsilon-\psi|dx\to 0$ bo'lsa, u holda quyidagi tenglik o'rinli bo'ladi:*

$$\lim_{\varepsilon\to 0}|\sigma^2_{T_\varepsilon}(\psi)-\sigma^2_T(\psi)|=0.$$

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Kuchsiz kengaytiruvchi tasodifiy sistemalar uchun chiqizli javob"** deb nomlanadi va kuchsiz giperbolik tasodifiy sistemalar uchun chiziqli jabov malalasiga bag'ishlanadi.

Tasodifiy dinamik sistema deb $(X,\mathcal{B})$ o'lchovli fazoda aniqlangan

$$S:\Omega\times X\to\Omega\times X,\ S(\omega,x)=(\sigma\omega,T_{\sigma(\omega)}(x)),$$

"qiya" ko'paytma akslantirishga aytiladi, bu yerda $\sigma:\Omega\to\Omega$ akslantirish $\mathbb{P}$ ehtimollik o'lchovini saqlaydi, T_ω akslantirishga esa "yaproq" akslantirishi deyiladi. Tasodifiy dinamik sistemalarni o'rganishda ikki xil yondoshuv mavjud: toblangan va so'ndirilgan. Toblangan holda dinamik sistemaning statsionar o'lchovlarining (bu o'lchovlar X fazoda aniqlanadi) xossalarini o'rganish nazarda tutiladi. Agar ixtiyoriy o'lchovli $A\subset X$ uchun

$$\int_X p(x,A)d\mu(x) = \mu(A),\ \ p(x,A) = \int_\Omega 1_A(T_\omega(x))d(\omega),$$

yoki, ixtiyoriy o‘lcholvi va chegaralangan $\phi: X \to \mathbb{R}$ uchun quyidagi

$$\int_X \int_\Omega \phi \circ T_\omega(x)d(\omega)d\mu(x) = \int \phi(x)d\mu(x).$$

tenglik bajarilsa, X fazoda aniqlangan μ o‘lchov statsionar o‘lchov deyiladi.

X kompakt interval va m undagi normallangan Lebeg o‘lchovi bo‘lsin. $T_\omega : X \to X$, $\omega \in \Omega$ akslantirishlar oilasi bo‘lib, har bir $\omega \in \Omega$ uchun Z_ω chekli yoki sanoqli to‘plam va $X_{z,\omega}$ ochiq intervallar X kompakt intervalning $z \in Z_\omega$ bo‘laklari bo‘lsin. Bundan tashqari, T_ω ning $X_{z,\omega}$ ga cheklanishi C^3 ga tegishli bo‘lib, ustiga akslantirish bo‘lsin. T_ω akslantirishning $X_{z,\omega}$ ga teskari tarmoqlarini $g_{z,\omega}$ bilan belgilaymiz. Barcha ω uchun bir xil belgilash to‘plami Z ni olamiz. Barcha akslantirishlar cheklangan yoki sanoqli tarmoqlarga ega bo‘lganligi sababli, z va ω mos kelmagan hollarda $g_{z,\omega}$ bo‘sh tarmoqlarni kiritish orqali muammo hal qilinadi. z bo‘yicha ko‘paytmalar paydo bo‘lganda, bo‘sh tarmoqlar hisobga olinmaydi. L_{T_ω} operatorni T_ω akslantirishning o‘tish operatori deb belgilaymiz, u quyidagicha aniqlanadi:

$$L_{T_\omega}\Phi = \sum_{z\in Z} \Phi \circ g_{z,\omega} \cdot | g_{z,\omega}'|.$$

Yuqoridagi tenglikni integrallab,

$$L\,\Phi := \int_\Omega L_{T_\omega}\Phi d(\omega).$$

tenglikni hosil qilamiz. Bu L – tasodifiy dinamik sistemaning o‘tish operatori deb ataladi. Aytaylik, Ω to‘plamda $\mathbb{P}_\varepsilon$ ehtimollik o‘lchovlari oilasi berilgan bo‘lsin. Biz ε soni 0 ning biror V atrofida $(\Omega,\{T_\omega\},\mathbb{P}_\epsilon)$ tasodifiy sistemaning statistik xossalarini o‘rganamiz. Qo‘zg‘atilgan sistemaning o‘tish operatori $L_{\mathbb{P}_\varepsilon}$ bilan belgilanadi. Aytaylik:

A-Faraz

(A1). $\tilde{D} > 0$ mavjud bo‘lib, barcha $x, y \in X$, $z \in Z$ va $\omega \in \Omega$ uchun quyidagi tengsizlik o‘rinli bo‘lsin:

$$\left| g_{z,\omega}'(x) / g_{z,\omega}'(y) - 1 \right| \le \tilde{D}\,|x - y|. \tag{16}$$

Shuningdek, ε ga bog‘liq bo‘lmagan $M > 0$ mavjud bo‘lib, $i = 2,3$ uchun quyidagi baho o‘rinli bo‘lsin:

$$\sup_{\varepsilon\in V}\sum_{z\in Z}\sup_{x\in X}\int_\Omega | g^{(i)}z,\omega | \, d(\omega) \le M. \tag{17}$$

(A2). shunday $\beta \in (0,1)$ topilib, $\sup_{\omega\in\Omega}\sup_{z\in Z}\sup_{x\in X} | g_{z,\omega}'(x) | \le \beta$ bo’ladi.

Agar T deterministik akslantirish qaralsa, (17) shart odatiy deformatsiya farazi $\sup_x | T_z'' x | / (T_z' x)^2 \le M$ tengsizlikdan kelib chiqadi. Bu yerda (17) shartda bunday deformatsiya "o‘rtacha hisobda" sodir bo‘lishini faraz qilyapmiz. Shuningdek (17) ifodada bo‘laklashlar bo‘yicha yig‘indi chekli bo‘lsin deb faraz qilyapmiz, chunki akslantirishlarning cheksiz bo‘laklarga ega bo‘lgan holni ham qaraymiz va Banach fazolarida aniqlangan o‘tish operatorlari bilan ishlaymiz, bu yerda $\|\cdot\|_{C^i}, i=0,1$ kuchsiz norma. Ayniqsa, (17) shart $\|L\ f\|_{C^i} \le C\|f\|_{C^i}, i=0,1$ tengizlikni qanoatlantiruvchi $\varepsilon>0$ o‘zgaruvchiga bog‘liq bo‘lmagan $C>0$ mavjudligini ta’minlash uchun talab qilinadi. Quyidagi tasdiq o‘rinli.

3-tasdiq. *(A1)-(A2) shartlar bajarilganda, har bir $\varepsilon\in V$ uchun L_ε operator C^1 va C^2 fazolarda ε bo‘yicha tekis spektral bo‘shliqqa ega. Qolaversa, $(\Omega,\{T_\omega\},P_\varepsilon)$ tasodifiy dinamik sistema yagona stasionar zichlikka ega va u $h_\varepsilon\in C^2$ shartni qanoatlantiradi.*

Har bir $z\in Z$ va $\Phi\in L^1(X)$ uchun quyidagicha belgilash kiritamiz:

$$\psi_z(\varepsilon,x)=\int_\Omega[\Phi\circ g_{z,\omega}\,|\,g_{z,\omega}'|](x)dP_\varepsilon(\omega).$$

B-faraz

